

**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga taqdim etilgan subsidiyalar va kompensatsiyalardan foydalanish samaradorligini baholash bo'yicha
METODOLOGIYA**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Metodologiya Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (keyingi o'rinlarda vazirlik) tizimidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari (keyingi o'rinlarda NMTT)ga subsidiyalar va kompensatsiyalar taqdim etilishini tizimli monitoring qilish, ularning samaradorligini baholash hamda maqsadsiz foydalanilgan subsidiyalarni to'xtatish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur metodologiyada quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

maqsadli ko'rsatkichlar –bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi hamda NMTT amalda faoliyat yuritayotganligi;

monitoring qilish – nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga taqdim etilgan subsidiyalar va kompensatsiyalardan foydalanishni kuzatish hamda tahlil qilish jarayoni;

NMTTning samaradorligini baholash – maqsadli ko'rsatkichlarga erishishini monitoring qilish;

NMTTBAT – “Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish” axborot tizimi;

qo'llab-quvvatlash choralari – NMTTga taqdim etiladigan subsidiya va kompensatsiya to'lovlari.

2-bob. NMTTning samaradorligini baholashda vazirlik va NMTTning vazifalari

3. NMTTning samaradorligini baholashda Vazirlikning vazifalari:

Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablarining va ta'lim-tarbiya dasturlarining NMTT tomonidan bajarilishini (zaruratga ko'ra NMTT hududiga borgan holda) monitoring qilish;

NMTTga taqdim etilgan subsidiya va kompensatsiya mablag'larining samaradorligi yuzasidan tizimli monitoringni tashkil etish;

monitoring jarayonini elektron axborot tizimlari orqali shaffof tarzda amalga oshirish;

NMTTlar tomonidan qonunchilik hujjatlari, litsenziya va DXSH bitimlari shartlariga rioya etilishini nazorat qilish.

4. NMTTning vazifalari:

maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish;

ta'lim-tarbiya berish orqali bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash;

bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish;
ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish;

bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlash;
bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish;

bolalarning salomatligini, sog'lom ovqatlanishini sanitariya qoidalari, normalari va gigiyenik normativlar asosida ta'minlashni tashkil qilish;

bolalarda xalqimizning yuksak ma'naviyati va insonparvarlik an'alariga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish;

ta'lim tarbiya jarayonini maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablariga asosan ishlab chiqilib, Vazirlik tomonidan tasdiqlangan yoki tavsiya qilingan dasturlar bilan tashkil etish;

NMTTBAT va "Bolalar bog'chasi" axborot tizimiga kiritilgan ma'lumotlarning to'g'ri va haqqoniy kiritish;

boquvchisini yo'qotgan ayollar farzandlarini bepul o'qitish;

oliy yoki o'rta maxsus pedagog ma'lumotli kadrlarning pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishini ta'minlash;

oliy yoki o'rta maxsus pedagog ma'lumotga ega bo'lmagan (tegishli hududlarda oliy yoki o'rta maxsus pedagogik ma'lumotli talabgorlar mavjud bo'lmagan) holatlarda maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha qayta tayyorlovdan o'tkazilgan shaxslar ham pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishini ta'minlash;

sud tomonidan yoki tibbiy xulosaga muvofiq shug'ullanishi taqiqlangan shaxslarning pedagogik faoliyatiga yo'l qo'yilmaslik;

taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralaridan foydalanish jarayonida qonunchilikda belgilangan me'yorlarga to'liq amal qilishi;

NMTT qonunchilikka muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

3-bob. Monitoring qilish tartibi

5. NMTT samaradorligini baholash yuzasidan tegishli vazirlik va idoralararo axborot almashinuvi orqali NMTTBATda Vazirlik, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari tomonidan har oyda hisobot oyidan keyingi oy yakuniga qadar elektron monitoring o'tkaziladi.

Bunda, elektron monitoring quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'tkaziladi.

NMTT tomonidan bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichi;

NMTTning bitimda belgilangan manzilda yoki manzili (joylashuvi bo'yicha geolokatsiyasi)dan boshqa joyda qayd etilganligi;

NMTT tomonidan tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning davomatlari to'g'ri yuritilganligi;

xodimlarning ta'lim ma'lumotlari va malaka toifalari belgilangan talablarga mosligi;

me'yoriy shtat normalaridan ortiqcha shtat kiritilganligi;

DXSH bitimning yoki ijara shartnomasining amal qilish muddati mavjudligi; tarbiyalanuvchilarning o'rtacha oylik davomati belgilangan me'yorlar darajasida ekanligi;

oilaviy MTTning rahbari bir vaqtning o'zida maktabgacha va maktab ta'limi tizimining boshqaruv organi xodimi yoki davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yoxud umumta'lim maktabida rahbarlik lavozimda ishlaganligi;

DXSH asosidagi MTTning xodimlari (ish haqi xarajatlarini qoplash uchun subsidiya olmaydigan DXSH asosidagi MTT xodimlari bundan mustasno) va tarbiyalanuvchilarining haqiqiy davomati hisobi NMTTBATda jismoniy shaxsni biometrik identifikatsiya qilish texnologiyasi orqali yuborgan davomati monitoringgi.

6. Monitoring natijalariga ko'ra soxta (feyk) davomatlar aniqlanganda tegishli tartibda dalolatnomalar rasmiylashtiradi.

7. Zaruratga ko'ra, taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralaridan maqsadli foydalanish holati joyiga chiqqan holda 10 kundan oshmagan muddatda o'rganiladi.

Bunda, NMTT tomonidan bitim va litsenziya shartlariga rioya etilishi, bolalarga ta'lim-tarbiya berish orqali maktab ta'limiga sifatli tayyorlash, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinganligi, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyenik normativlar talablariga rioya etilishi, bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlantirish, bolalar salomatligini ta'minlash, xodimlarning malaka darajasi, zamonaviy metodik qo'llanmalar asosida o'quv jarayonining tashkil etilishi, didaktik materiallar hamda mebel, jihozlar va boshqa texnik, rehabilitatsiya vositalari mavjudligi o'rganiladi.

4-bob. Samaradorlikni baholash tartibi

8. NMTTga ajratilayotgan subsidiya va kompensatsiyalarning samaradorligini baholash bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi hamda NMTT amalda faoliyat yuritayotganligi bilan belgilanadi.

9. Bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi hamda NMTT amalda faoliyat yuritayotganligi NMTTBAT orqali avtomatik tarzda aniqlanadi. Bunda:

DXSH asosidagi bitimning amal qilish muddati mavjudligi;

ta'lim tashkilotining litsenziyasi amal qilishi;

NMTT faoliyat yuritayotganligi;

NMTTBAT axborot tizimida tarbiyalanuvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjudligi inobatga olinadi.

NMTTning DXSH asosidagi bitim amal qilish muddati mavjud bo'lganda, litsenziyasi amalda bo'lganda, faoliyat yuritilayotganda hamda NMTTBATda tarbiyalanuvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lganda, NMTT tomonidan bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish faoliyati amalga oshirilgan deb topiladi.

NMTTning DXSH asosidagi bitim amal qilish muddati tugaganda yoki bitim bekor qilinganda, litsenziya bekor qilinganda, faoliyat yuritmayotganda, NMTTBATda tarbiyalanuvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lmaganda, NMTT tomonidan bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish faoliyati amalga oshirilmagan deb topiladi. Bunda yuqorida ko'rsatib o'tilgan kamida bitta holat mavjud bo'lganda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish faoliyati amalga oshirilmagan deb topiladi.

10. Samaradorlikni baholash natijasiga ko'ra NMTT tomonidan bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish faoliyati amalga oshirilgan deb topilganda, mazkur NMTT faoliyati samarali deb baholanadi hamda hisobot oyi uchun subsidiya va kompensatsiya to'lovlarini to'lash belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5-bob. Subsidiyalar va kompensatsiyalarni to'xtatish tartibi

11. Samaradorlikni baholash natijasiga ko'ra NMTT tomonidan bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish faoliyati amalga oshirilmagan deb topilganda, mazkur NMTT faoliyati samarasiz deb baholanadi hamda hisobot oyi uchun subsidiya va kompensatsiya to'lovlari amalga oshirilmaydi.

12. NMTTning manzili (joylashuvi bo'yicha geolokatsiyasi)dan boshqa joyda qayd etilgan xodimlar va tarbiyalanuvchilarning davomati NMTTBATda hisobga olinmaydi.

13. DXSH asosidagi MTT, shu jumladan, oilaviy MTT tomonidan bir bolaning ma'lumotlari NMTTBATga kiritilib, uning fotosurati o'rniga boshqa bola (tarbiyalanuvchi)ning fotosurati ushbu axborot tizimiga joylashtirilganligi va uning asosida davomati belgilanib kelinayotganligi aniqlanganda:

mazkur tarbiyalanuvchi MTTga qatnagan barcha davri uchun to'langan subsidiyalar summasi to'liq Davlat byudjetiga undiriladi;

ushbu holat aniqlangan oydan boshlab uch oy davomida subsidiya to'lovlari mazkur DXSH asosidagi MTTga hisoblanmaydi va to'lanmaydi. Bunday holat ikkinchi marta aniqlanganda ushbu DXSH asosidagi MTT bilan davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim bekor qilinadi va qayta tuzilmaydi.

14. DXSH asosidagi bitimning yoki ijara shartnomasining amal qilish muddati tugaganda NMTTga subsidiyalar va kompensatsiyalar hisoblanmaydi va to'lanmaydi.

15. Oilaviy NMTTning har bir guruhida tarbiyalanayotgan bolalarning o'rtacha oylik soni 12 nafardan kam bo'lganda, mazkur guruhda yollangan tarbiyachi hamda

tarbiyachi yordamchilarining hisobot oyi uchun ish haqi xarajatlarini qoplash uchun subsidiya mablag'larini to'lab berilmaydi.

16. NMTTBATda NMTTning tarbiyalanuvchilari bo'yicha o'rtacha oylik davomati foizi 40 foizdan kam bo'lganda, hisobot oyi uchun xodimlarning ish haqi, yumshoq jihozlar va dori vositalari xarajatlarini qoplash uchun subsidiya hisoblanmaydi va to'lanmaydi.

17. Oilaviy MTTning rahbari bir vaqtning o'zida maktabgacha va maktab ta'limi tizimining boshqaruv organi xodimi yoki davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yoxud umumta'lim maktabida rahbarlik lavozimda ishlaganida subsidiyalar hisoblanmaydi va to'lanmaydi.

18. NMTT bilan tuzilgan bitim yoki litsenziya bekor qilinganda hamda DXSH asosidagi bitimning amal qilish muddati yakunlanib, bitim muddati belgilangan tartibda uzaytirilmasa subsidiya va kompensatsiya to'lovlari to'xtatiladi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

19. Mazkur Metodologiyada nazarda tutilgan talablarga (normalarga) rioya qilmagan tadbirkorlik subyektlarga O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq choralar ko'riladi.